

# FRANSUZCHA QIYOSIY FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI TALQINI

A‘zamova Gulnoza Abduxoliq qizi

SamDCHTI birinchi kurs magistr talabasi

*Annotatsiya.* Iboralarni turli tillar doirasida qiyosiy o‘rganish, ularning til va nutq bosqichlaridagi umumiylik va xususiylik dialektikasini yoritish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Iboralarni har ikkala til doirasida o‘rganish, ularning semantik-grammatik va funksional stilistik xususiyatlarini ochib berish mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqola fransuzcha qiyosiy frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga tarjima jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** ekvivalent tanlash, stilistik xususiyatlar, ilmiy ma‘no, xarakterni ifodalash.

*Аннотация.* Сравнительное изучение словосочетаний в пределах разных языков, выяснение диалектики общности и специфичности в их стадиях языка и речи является одной из актуальных проблем языкознания. Актуальность данной работы определяется исследованием словосочетаний обоих языков, выявлением их семантико-грамматических и функционально-стилистических особенностей. Данная статья посвящена изучению процесса перевода французских сравнительных фразеологизмов на узбекский язык.

**Ключевые слова:** эквивалентный выбор, стилистические особенности, научное значение, характерное выражение.

*Annotation.* The comparative study of phrases within different languages, the elucidation of the dialectic of generality and specificity in their stages of language and speech is one of the current problems of linguistics. The relevance of this work is determined by the study of phrases in both languages, revealing their semantic-

*grammatical and functional stylistic features. This article is devoted to the study of the process of translation of French comparative phraseological units into Uzbek.*

**Keywords:** *equivalent choice, stylistic features, scientific meaning, character expression.*

Tilning lugʻat tarkibiga faqat soʻzlar emas, balki turgʻun boʻlib qolgan soʻz birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab boʻlgan turgʻun birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha phrasis — ibora, logos — taʼlimot maʼnosida) deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir boʻlimi sifatida qaraladi.

(5)

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq soʻzlarning turgʻun birikmasidir. Masalan, se mettre le fil à la patte - turmush qurmoq; au premier chant du coq - tong sahardan; être cousu d'or - oʻta boy boʻlmoq (fr. oltindan tikilgan boʻlmoq) kabi. Frazeologizmlarning tarkibida nechta soʻz ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy maʼno bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv maʼnoni ifodalaydilar, shaklan oʻzlariga oʻxshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutkda suzlarni erkin tanlash, almashtirish yoʻli bilan yuzaga kelmaydi, balki maʼno va muayyan leksikgrammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qoʻllanadi, Frazeologik ekvivalent tanlashda tarjimon albatta kontekstda anglatgan mazmunga eʼtibor berishi lozim, aks holda, tanlangan ekvivalent matnda ifodalangan mazmunga toʻgʻri kelmay, fikriy gʻalizliklarni keltirib chiqaradi. Olimlarning taʼkidlashlaricha, tarjima jarayonida bir tilga xos boʻlgan grammatik vositalarni albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart emas. Bunday hollarda tarjimada yo vaziyat yo kontekstga alohida eʼtibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada soʻzlar kabi frazeologizmlarning anglatgan maʼnosini,

emotsional – ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur har bir til o'z doirasidagi so'zlarni o'rnida qo'llash, ma'no kengayish usullarini o'rganish, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini dunyoning tildagi ko'rinishi orqali aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Inson qiyofasi va xarakterini ifodalash har bir tilda ko'rilganda, shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda beriladi. Shuningdek, tilning qanchalik keng maydonga egaligidan darak beradi. Ma'lumki, iboralar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Iboralar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida fransuzcha comparative iboralarning o'zbek tiliga tarjimasi qayd etilgan:

Répéter qqch comme un perroquet - to'tiqushdek takrorlamoq;

C'est simple comme bonjour - bu juda oson ( fr. bu xuddi salomdek oson);

C'est comme l'œuf de Columb - bu Kolumbning tuxumidek (amalga oshirishga oson lekin uning topilishi ziyraklik talab qiladigan yechimga nisbatan ishlatiladi).

Il pleut comme vache qui pisse - chelaklab yomg'ir quyaypti;

Être gueux comme un rat d'église - o'ta qashshoq bo'lmoq (fr. cherkov kalamushidek tilanchi bo'lmoq);

Être fauché comme les blés - sariq chaqasi bo'lmaslik ( fr.bug'doy kabi o'rilgan bo'lmoq);

Être riche comme Crésus - Kresusdek boy bo'lmoq ( Kresus - Lideya qiroli mil.avv. VI asr, o'zining boyligi bilan tanilgan);

Être avare comme un Auvergnat - Overgnelikdek ziqna bo'lmoq ( Auvergne - Fransiyaning markaziy qismidagi viloyat nomi. Tarixda Avergn dehqonlari

o'zining yashash sharoitining yomonligi va qiyinligi bilan ajralib turgan, shuning uchun ham "ziqna" nomini olgan bo'lishi mumkin.);

Matcher comme une tortue - toshbaqadek yurmoq ;

Aller comme le vent - shamoldek o'tmoq, juda tez yurmoq;

Entrer comme un ouragan - bo'rindek kirib kelmoq;

Trembler comme un feuille - yaproq kabi titramoq ( qo'rquvdan).

Fransuz tilida qiyosiy frazeologik birliklarda variantlanish hodisasini ham uchratishimiz mumkin:

Courir comme un lapin = courir comme un zèbre = courir comme si on avait le diable à ses trousses - juda tez yugurmoq. (2.152)

Bu tasniflar frazeologik birikmalarning funksional-uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish, shu asosda frazeologik lug'atlar tuzish, ularni nutqni ixcham va jozibali bayon etishda foydalanish yo'l-yo'riqlarini belgilaydi. Frazeologik birikmalarni fransuz va o'zbek tillarida qiyosiy o'rganish madaniyatimiz qadriyatlarini o'zga xalq madaniyati, urf-odatlarini o'rganish bilan chog'ishtirish, uni yana yuksak pog'onaga ko'tarishni davr taqozo etmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. А. Г. Назарян Фразеология современного французского языка, Москва " Высшая школа" 1987.

2. Бардоши В., Эттингер Ш., Штельтинг С., Бутина Е В. Фразеологизмы французского языка: Словарь-практикум. Екатеринбург: Уральское изд-во, 2002.

3. Yo'ldoshev В. "Hozirgi frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari". Toshkent 1993.

4. Vladimir Kogout Dictionnaire des expressions idiomatiques françaises: Sankt-Peterburg, 2014.

5. <https://fayllar.org/a-a-abduazizov.htmlpage=9>